

DEFITSITAR MOTIVLAR NAMOYON BO'LIHINING PSIXOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI VA ASOSLARI

*Jovliyeva Nasiba Umrzaqovna
TerDu o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada defitsitar motivlar fenomenining o'ziga xosligi, psixologik mazmun-mohiyati va asoslari keltirilgan. Defitsitar motivlarga doir xorijiy yondashuvlarning tadqiqotlari ochib berilgan. Shuningdek, defitsitar motivlarga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: motiv, defitsitar motiv, psixologik mazmun, ta'sir, psixologik xususiyat.

Jahon miqyosida talaba va taxlim dargohlari munosabatlari va o'quv faoliyatiga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Jahonda pedagog-psixologlarni tayyorlash, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy safarbarlik dapajasini oshirish uchun stress va nizolarga nisbatan psixoemotsional batqarorligini oshirish, shaxs ijodiy faolligini, ijtimoiy-psixologik, kasbiy, pedagogik kompetentligini shakllantirish, «pedagog-psixologning mavqeini pedagogik jamoadagi psixologik muhitni barqarorlashtirishdagi o'rnini anglash» maqsadida kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, pedagog-psixologlarning kasbiy standart talablari doirasida mutaxassis tayyorlash mexanizmlari bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratishga ehtiyojning ortayotganligi kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda yoshlarni raqobatbardosh, bilimli, o'z ustida ishlaydigan, novator etib tarbiyalash hamda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash va amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zaruriy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Oliy ta'lim muassasalarida psixologiya sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish va tor yo'nalishlar, mutaxassiliklarni joriy etish» strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu borada pedagog-psixologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini ta'lim indikatorlari asosida SWOT tahlil qilish, psixolog kadrlarni tayyorlashdagi innovasion texnologiyalarni amaliyotga integratsiyasining strukturaviy konstruktlerini o'rganishning yangicha nazariy echimlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish imkoniyati yaratilmoqda.

Defitsitar motivlarning psixologik jihatlarini ilmiy-amaliy tomonlama MDH davlatlarida o'rganilishiga doir tadqiqotlar asosan Rossiyada tadqiq etilgan. Psixologiyada defitsitar motivlar va bu motivlarni muammosini o'rganishning o'ziga xos tizimi, ilmiy maktablari va konsepsiyalari mavjud. Defitsitar motivlarni tizimli ravishda o'rgangan olim A.X. Maslou sanaladi. Shu bilan birgalikda defitsitar motivning fundamental masalalari yuzasidan Rossiyada ham izlanishlar olib borilgan. Rus olimlaridan B.Ananev, A.Berdichevskiy, L.Bojovich, G.Andreeva, A.Orlov, Yu.Orlov, D.Elkonin, A.Etkind, L.Fridman, B.Setlin, L.Abulxanova-Slavskaya, L.S. Rubinshteyn, V.Aseev, V.Vilyunas, Ye.Ilin, L.Kovalev, A.Markova, I.Kuznesova, T.Matis, M.Matyuxina, M.Magomed-Eminovlar va boshqalar defitsitar motivlarni biror kamchilik, yetishmovchilik, ya'ni defitsitni bartaraf etish istagi bilan bog'liq jihatlarini va defitsitar motivatsiya organizmdagi tajang, noqulay holatni bartaraf etish ehtiyojini anglatishiga oid tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Bu istalgan qonmay qolgan ehtiyojni qondirishga undayotgan sabablardir. Masalan, talaba qandaydir fandan xohlagan bahosini ololmayapti. Shu defitsitni qoplash uchun intiladi. Uning shu intilishi ortida qanday motivlar bo'lishi mumkin: o'qituvchiga o'zining asl qobiliyatini ko'rsatib qo'yish istagi, stipendiyani oshirish, qandaydir tanlovga chiqish, qaysidir kursdoshdan ortda qolmaslik istagi va h. bularning bari defitsitar motivatsiya bo'lib gavdalanadi.

Defitsitar motivlarni kasb tanlash motivi, kasbiy jihatdan o'zini anglash va kasb tanlash motivining yoshga xos xususiyatlari bilan bog'lagan holda tadqiq etish masalalari bo'yicha N.Gisbers, Ye.Golovaxa, A.Golomshtok, L.Yovayshi, Ye.Klimov, A.Kronik, L.Mitina, I.Mur, N.Pryajnikov, D.Syuper, L.Bojovich, I.Kon, V.Slobodchikov, D.Feldshteyn va boshqalarning izlanishlarini ta'kidlash joiz. Chunki har bir shaxs kasb tanlash jarayonida ma'lum bir inqirozlarga duch kelishadi. Shuning uchun defitsitar motivlar shaxsning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida to'sqinlik qiluvchi asosiy indikatorlardan biri sanaladi. Bu kabi holatni oilaviy munosabatlar jarayonida ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni yosh oilalar yoki turmush qurmoqchi bo'lgan insonlar o'rtasida asosiy ehtiyojlarni tashkil etuvchi xususiyatlarni qamrab oladi.

Shu jumladan MDH olimlarining tadqiqotlarida defitsitar motivlarning ijtimoiy-psixologik va

individual masalalariga, shuningdek motivlarning boshqa turlari ya'ni biologik, ijtimoiy, xavfsizlik, ma'naviy, iqtisodiy va estetik kabi turlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tanqidiy tahlilini ko'rish mumkin. Sotsiologlarning ma'lumotlariga ko'ra nikoh va oila sohasida 70 dan kuproq yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Oilaviy hayotning deyarli barcha tomonlari doimiy ilmiy nazorat ostiga olingan.

Motivatsiya nazariyasi motivatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Tadqiqotlar predmeti ehtiyojlar va ularning motivatsiyaga tahliliga bag'ishlangan. Mazkur nazariyalar ehtiyojlar tuzilmasi, ularning mazmuni hamda ushbu ehtiyojlarni kishining faoliyatga nisbatan motivatsiyasini tavsif qiladi.

Yuqorida tilga olingan nazariyalarda insonni faoliyatga undovchi kuchlarni tushunishga harakat qilingan. Ushbu turkumga kiradigan motivatsiya nazariyalari sirasiga A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi, K.Alderfer tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiy etish va bog'liqliklarni hosil qilish nazariyasi, D.Mak-Klellandning o'zlashtirilgan ehtiyojlar nazariyasi, F.Gersbergning ikki omilli nazariyasi, V.Vrumning orziqishlar nazariyasi, Porter-Lauler modellari eng keng tarqalgani hisoblanadi.

A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi konsepsiyasi.

A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi konsepsiyasi quyidagi asosiy g'oyalardan tashkil topgan:

- Inson hamisha nimagadir ehtiyoj sezadi;
- Inson guruhlashtirish imkonini beradigan yaqqol namoyon bo'ladigan ehtiyojlar girdobida bo'ladi;
- Ehtiyojlar guruhlari bir-biriga nisbatan ierarxik (tadrijiy) ko'rinishga ega;
- ehtiyojlar qonmasligi odamni harakatga undaydi; qondirilganlari motivlashtirish kuchiga ega emas;
- biron-bir ehtiyoj qondirilsa, uning o'rnini boshqasi egallaydi;
- odatda inson kompleks tarzda o'zaro ta'sirga kiradigan turli ehtiyojlarni sezishi mumkin;
- ierarxiyaning eng quyi pog'onasiga yaqin ehtiyojlar birinchilardan bo'lib qondirilishi lozim; yuqori darajada joylashgan ehtiyojlar quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilgandan keyin insonga faol ta'sir ko'rsata boshlaydi;
- yuqori darajadagi ehtiyojlar qondirilish imkoniyati quyi darajadagi ehtiyojlar imkoniyatidan kengroq bo'ladi.

Maslou o'zining "Voqelik psixologiyasiga doir" asarida yuqoridagi ehtiyojlarga komillika ehtiyoj deb nomlagan oliy ehtiyojlar ro'yxatini qo'shib qo'ygan. Biroq Maslouning o'zi ular o'zaro mushtarak bo'lib bir-birlaridan to'liq farqlash qiyinligi bois ushbu ehtiyojlarga ta'rif berish mushkulligini e'tirof etgan. Maslougga ko'ra voqelik qadriyatlariga to'kislik, soddalik, mukammallik, go'zallik, tugallik, adolat, hayotiylik, o'ziga xoslik, samimiylik, halollik kabi qadriyatlar taalluqli. Voqelik qadriyatlar shaxs sifatida taraqqiy etish tuzilmasiga mansub bo'lib insoniy faoliyatning qudratli motivlariga aylanadi.

Kleyton Alderfer, Maslou singari, o'z nazariyasida inson ehtiyojlari alohida guruhlariga birlashishi mumkinligi nuqtai-nazariga tayanadi. Lekin u ehtiyojlarning uch guruhi mavjudligini ta'kidlaydi: mavjudlik ehtiyojlari, 2) rishtalar bog'lashga ehtiyoj, 3) komillik ehtiyoji.

Mazkur nazariyada zikr etilgan ehtiyojlar guruhlari Maslou nazariyasidagi ehtiyojlar guruhlarga monandligi kuzatilmogda. Mavjudlik ehtiyojlari Maslouning ehtiyojlar shajarasidagi ikki turkum ehtiyojlarni o'z ichiga qamrab oladi: xavfsizlik ehtiyoji (guruhiy xavfsizlik ehtiyojidan tashqari) va fiziologik ehtiyojlarni. Rishtalar bog'lashga bo'lgan ehtiyojlar bilan mansublik va dahldorlik ehtiyojlari o'rtasida mushtaraklik kuzatiladi.

Alderfer fikriga ko'ra, rishtalar bog'lashga bo'lgan ehtiyojlar insonning ijtimoiy tabiatini aks ettiradi. Mazkur ehtiyojlar guruhiga quyidagilar kiradi: oila a'zosi bo'lish ehtiyoji, do'st orttirish ehtiyoji, rahbar bo'lish va tobe'lik ehtiyojlari va h. Aynan shu sabab ushbu guruhga Maslou shajarasidagi e'tirof etilish bilan bog'liq ehtiyojlarni ham kiritisa bo'ladi. Komillikka intilish ehtiyoji Maslouning shaxs sifatida takomillash ehtiyojiga monand. Biroq Maslou va Alderfer nazariyalari o'rtasida keskin farq ham mavjud: Maslou ehtiyojlar harakati quyidan yuqoriga qarab amalga oshadi deb hisoblasa, Alderfer fikriga ko'ra, harakat ikki yoqlamadir: yuqoriga agar quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilmagan bo'lsa, va quyiga agar yuqori darajadagi ehtiyojlar qondirilmagan bo'lsa; bunda yuqori darajadagi ehtiyojlar qondirilmagan bo'lsa quyi darajadagi ehtiyojlar ta'siri kuchayib boradi, pirovardda, odam diqqati ushbu darajaga ko'cha boshlaydi.

Alderfer nazariyasiga muvofiq ehtiyojlar ierarxiyasi aniq ehtiyojlardan noaniq ehtiyojlar sari

ko‘tariladi va har safar ehtiyojlar qondirilmaganda diqqat soddaroq ehtiyoj darajasiga ko‘cha boshlaydi. Ehtiyojlar shajarasida yuqoriga harakat ehtiyojlar qondirilishi jarayoni deb, quyiga harakati – frustratsiya jarayoni deb nomlanadi. Ehtiyojlarni qondirishdagi ikki yoqlama harakatning mavjudligi insonni motivlashtirishda qo‘shimcha imkoniyatlar beradi.

Gedonik motivatsiyaga doir nazariyada odam lazzatlanishni maksimal darajada oshirishga va noqulaylik, og‘riq, iztirobni imkon qadar pasaytirishga intiladi deyiladi. Mazkur nazariyani ishlab chiqqanlardan biri amerikalik psixolog P.Yungdir. U xodimlar xulqini uyushtiradigan, yo‘naltiradigan va faolligini ta‘minlaydigan asosiy omil deb lazzatlanishni ilgari suradi. Yung nazariyasiga ko‘ra xulq-atvorni undan keyin keladigan emotsiya belgilaydi. Agar ushbu emotsiya ijobiy bo‘lsa, harakat takrorlanadi, aksincha bo‘lsa – to‘xtatiladi. Gedonik nazariya tarafdorlari emotsional kechinmalar muayyan darajagacha lazzatlanish sifatida idrok etiladi. Undan so‘ng to‘yinish vujudga kelib mazkur to‘yinish nohushlik kabi qabul qilinadi.

Xulosa. Inson ehtiyojlari, maqsadi, istagi, qiziqishlari shaxsiy holatlardir. Ehtiyoj – bu organizmni normal mavjud bo‘lishi bilan bog‘liq holatdir. Inson motivlari orasida muvaffaqiyatga erishish motivi – muvaffaqiyatsizlikdan qochish motividan ustun bo‘lib, muvaffaqiyatga erishish motivi shaxsning barqaror xususiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды в 2-х т. – М.: Педагогика, 1999. – Т1. – 287с.
2. Кузнецова И.В. Мотив аффилиации в межличностных отношениях: Дис. ... канд. псих. наук.–СПб.: СПГУ, 2006. – 204 с.
3. Долгов И. Хронтоп «Котлована». Вопросы истории текста // «Страна философов» Андрея Платонова: Проблемы творчества. Вып. 4. М.: Наследие, 2000. – С. 769 – 786.
4. Волкова Е. В. Концепции мотива в современном литературоведении // Преподаватель XXI век. 2008.
5. Спиридонова И. А. Мотив сиротства в «Чевенгуре» А. Платонова в свете христианской традиции // Проблемы исторической поэтики. 1998.